

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

QURBONOV BOBUR CHORSHANBIYEVICH

**“MAJOLIS UN-NAFOIS” VA “LATOYIFNOMA” TAZKIRALARI
QIYOSIY TADQIQI: AN’ANA VA VORISIYLIK, BADIY USLUB
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Qurbonov Bobur Chorshanbiyevich

“Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” tazkiralari qiyosiy tadqiqi: an’ana va vorisiylik, badiiy uslub xususiyatlari 3

Курбонов Бобур Чоршанбиевич

Сравнительное исследование произведений «Маджолис ун-нафоис» и «Латоифнаме»: традиция и преемственность, особенности художественного стиля..... 27

Kurbonov Bobur Chorshanbiyevich

Comparative study of the works “Majolis un-nafois” and “Latoyifnoma”: tradition and continuity, features of literary style..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

QURBONOV BOBUR CHORSHANBIYEVICH

**“MAJOLIS UN-NAFOIS” VA “LATOYIFNOMA” TAZKIRALARI
QIYOSIY TADQIQI: AN’ANA VA VORISIYLIK, BADIY USLUB
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1632 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://www.samdhti.uz>) "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salohiy Dilorom Isomiddin qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umurova Guzal Xotamovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Izzatillayev Parviz Inoyatillayevich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "27" *fevral* 2026-yil soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axbopot-resurs markazida tanishish mumkin (62591-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "12" *fevral* kuni tarqatildi.
(2026-yil "12" *fevral* daqi № 2 -raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori (DSc),
professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida mumtoz adabiyotdagi obrazlar tizimi, an'analarning davomiyligi, ijod psixologiyasi, badiiy uslub masalasi, adabiy muhit, zullisonaynlik an'anasi, janrlar tabiatining takomillashuvi, tarjimalarning kompozitsiyasi hamda qiyosiy adabiyotshunoslikning yutuqlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu o'rinda jahonda ro'y berayotgan globallashuv jarayoni adabiyotshunos mutaxassislar va soha tadqiqotchilari oldiga Sharq mumtoz adabiyoti vakillarining adabiy merosi hamda ularning tarjimalarini hozirgi dolzarb ilmiy-nazariy tafakkur mezonlari asosida ochib berish muammosini qo'yimoqda. Shu sababdan adabiy aloqalarning tadrijiy taraqqiyotini yoritish, asliyat va tarjimalarni qiyosiy o'rganish, badiiy uslub va uning tarjimalardagi ifodasi, tarjimadagi ijodiy vorisiylik hamda tarjima va transliteratsiya jarayoniga ilmiy baho berish maqsadida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiy tanqidchiligida ham asosiy e'tibor nodir adabiy asarlarni zamonaviy ilmiy paradigmalarda yutuqlariga tayanib puxta o'rganish, tahlil va talqin etish masalasiga qaratilmoqda. Natijada mumtoz asarlardagi poetik g'oyani ochib beruvchi obrazlar tizimi, asar qurilishidagi kompozitsion murakkablik, ikki tilda ham mohirona ijod qilgan shoirlar hayoti, ularning uslub masalasidagi o'ziga xoslik qirralari shuningdek, asarlar tarjimasini va ularni qiyoslash orqali yangi poetik mazmuni kashf etish masalalarini tahlili uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bois mumtoz asarlarni qiyosiy o'rganish asosida ularning tili, uslubi, janrlar imkoniyati, qurilishi va semantik xususiyatini aniqlash, zullisonaynlik talqini va sharh yozish an'anasining tarjimalardagi o'ziga xos xususiyatlari, tazkirachilik maktablari hamda bu maktablar orqali tarixiy ijtimoiy muhitni anglash, shoirlar ijodi bo'yicha yangi ma'lumotlar olish, adabiy an'analarning asrlar osha davomiyligi borasida ilmiy xulosalar chiqarish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi asosiy zarurlardan biriga aylanmoqda.

Mamlakatimizda istiqloq tufayli fan va ta'lim sohasiga bo'lgan yuksak e'tibor, ilmiy jamoatchilik oldiga qo'yilgan talablar asosida madaniy meros, badiiy ijod va uning tarixiga yangicha yondashuv jumladan, Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishlarning yangi bosqichga ko'tarilishi keng jamoatchilikni e'tiborini tortmoqda. "Hazrat Mir Alisher Navoiy o'ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g'oyalarni baland ko'tarib maydonga chiqqani, o'zbek adabiy tiliga asos solib, uning o'lmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam ma'naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz".¹ Natijada insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari va an'analari, ularning Sharq mumtoz adabiyoti, shu jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida namoyon bo'lishi, ajdodlarimiz badiiy meroslarining mazkur qonuniyatlar takomilidagi ulkan hissasini yoritish, ajdodlardan meros qolgan qadimiy va boy asarlarni qayta o'rganish hamda mumtoz adabiyot namunalari

¹ Shavkat Mirziyoyev. "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" IV xalqaro simpoziumi ishtirokchilariga tabrik. Demokrat.uz, 2025-yil 8-fevral. <https://demokrat.uz/2025/02/08/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-va-sharq-renessansi-iv-xalqaro-simpoziumi-ishtirokchilarini-tabrikladi> (12.12.2025)

asl g‘oyalarini talqin etilishi tarjimashunoslik va adabiyotshunosligimizning oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini ubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oeshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Alisher Navoiyning tazkirachilik va zullisonaynlik an‘analarining rivojidagi o‘rni, asarlarining forscha va ruscha tarjimalari hamda turkiy va forsiy adabiyotning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish, shuningdek, qadimiy matnlarni o‘rganib, ularni zamon talabiga muvofiq transliteratsiyasini ommaga yetkazish adabiyotshunoslik hamda tarjimashunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Alisher Navoiy hayoti, ijodi va asarlarining boshqa xalqlar adabiyotiga ta‘siri hamda ularning tarjimalari o‘zbek olimlaridan V. Abdullayev, M.Sharipov, B.Valixo‘jayev, A.Qayumov, S.G‘aniyeva, M.Muhiddinov, Sh.Sirojiddinov, R.Vohidov, H.Boltaboyev, D.Salohiy, T.Sultanov, P.Izzatillayev² kabi olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Navoiyning asarlari, jumladan, “Majolis un-nafois”

²Абдуллаев В.А. Алишер Навоий Самарқандда. –Т.: Билим, 1967., Шарипов М. Навоий ва адабий алоқалар. – Тошкент: Фан, – 1968. – Б. 251., Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – Б. 215., Қаюмов А. Алишер Навоий. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б.174., Ганиева С. “Мажолис ун-нафоис”нинг форсий таржималари” // Алишер Навоий ва форс-тожик адабиёти конференцияси материаллари. 2002, 30- январь. – Б. 105-124., Муҳиддинов М. Адабий анъана ва ижодий ўзига хослик. – Тошкент, Ўқитувчи, 1990. – Б. 85., Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011.–Б. 326., Воҳидов Р. “Мажолис ун-нафос”нинг таржималари/ масъул муҳаррир: Б. Валихўжаев.–Т.: Фан, 1984. –Б. 148., Болтабоев Х. Мумтоз сўз қадри. – Тшкент: Адолат, 2004. – Б. 192. , Салохий Д. Навоийнинг Рум диёрига туҳфаси// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. №5(3834). 2006 йил 3 февраль. – Б. 4., Султанов Т. Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содикий асарлари мисолида) // ФФДА, Тошкент, 2019. – Б. 55., Izzatullayev P. Eron navoiyshunosligi: tadqiq, ta‘lim va tarjima. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa diktori (PhD) diss avtoref. – Toshkent, 2022. – 42 b.

tazkirasi va uning tarjimalari o‘zbekistonlik adabiyotshunoslardan tashqari Rossiya, Eron, Tojikiston, kabi mamlakatlarda faoliyat yuritgan olimlarning ham e’tiborini o‘ziga tortgan va bu borada ma’lum darajada ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bular qatorida rus olimlaridan V.V.Bartold, A.K.Borovkov, A.N.Boldirev, A.Y.Yakubovskiy, Y.E.Bertels, V.M.Jirmunskiy, N.I.Konrad³, tojikistonlik olimlardan S.Ayniy, A.Mirzoyev, A.Afsahzod, S.S.Alizoda⁴, eronlik olimlardan Zabihullo Safo, Said Nafisiy, Ali Asg‘ar Hikmat, Hodi Bedakiy, Hisomiddin Roshidiy,⁵ va boshqalar o‘zlarining ilmiy faoliyatlarini Alisher Navoiy va Faxriy Hiraviy asarlari tadqiqiga bag‘ishlaganlar.

Mazkur tadqiqot asarlarining ilmiy ahamiyatini e’tirof etgan holda ta’kidlash joizki, “Majolis un-nafois” va uning fors, dariy va rus tillaridagi tarjimalarining kompozitsion va badiiy xususiyatlari alohida o‘rganilmaganligi tadqiqot ishimizning dolzarbligini dalillaydi. Zero bu tadqiqotlarning hech birida “Majolis un-nafois” tazkirasidagi badiiy uslub va uning tarjimalardagi ifodasi, asliyat va tarjimalardagi sharh yozish usulining o‘xshash va o‘ziga xos jihatlari munosib baholanmagan. “Majolis un-nafois”ning transliteratsiyasi va ruscha tarjimasi jarayonida yuzaga kelgan xatoliklar va ularni asliyatning adabiy, badiiy va tarixiy ahamiyatidagi salbiy ta’siri xususida hech qanday tadqiqot ishi amalga oshirilmagan. “Latoyifnoma”ning poetik xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Tadqiqot ishimizning muhimligi ushbu jihatlar bilan belgilanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Til, madaniyat, tarjima va muloqot muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi “Majolis un-nafois” asarining forscha hamda ruscha tarjimalarini badiiy uslub, obrazlilik, g‘oyaviy va falsafiy mushtaraklik, asliyatdagi matnni tarjimalar asosida qiyosiy tahlil qilish, an’ana va vorisiylik, ilmiy-badiiy uslub saqlanishi masalalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“Majolis un-nafois”da keltirilgan shoirlardan ba’zilari haqidagi ma’lumotlarning “Latoyifnoma”da yo‘qligi, ulardan ayrimlarining ismlarining boshqacha bayon etilganligi, tarjima qilingan ma’lumotlarga qo‘shimcha

³ Бартольд В.В. Мир Али Шир и политическая жизнь. Сочин. в XI томах. – М.: Наука, 1964. Т. II. Ч.2., Боровков А.К. Изучение жизни и творчество Алишера Навои. Сб. Родоначальник узбекской литературы. Ташкент, 1940; Навои и Джамии в народном предании. Известия АН ССР. Отделение литературы и языка, 1947, том. VI, выпуск 6., Болдырев А.Н. Алишер Навои в рассказах современников. Сб. Алишер Навои. Изд. АН СССР, М. –Л. 1946., Якубовский А.Ю. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои, в сб. “Алишер Навои”, М. – Л., Изд-во АН СССР, 1946., Бертельс Е.Э. Наваи и Джамии. – Москва: Наука, 1965. – 158 с. Жирмунский В.М. Алишер Навои и проблема Ринессанса в литературах Востока. “Литература эпохи Возрождения и проблемы всемирной литературы”. –М., 1967., Конрад Н.И. Средневековое Возрождение и Алишер Навои. “Запад и Восток”, М., 1972.

⁴ Айни С. Алишер Навоӣ. Нашриёти давлатии Тоҷикистон, 1948; А. Навоӣ. Танланган илмий асарлар, Тошкент, 1978., Мирзоев А. Абдурахмони Чомӣ ва чараёни зиндагии ӯ. Сездах мақола. Душанбе, Ирфон, 1977., Афсаҳзод А. Дар сафи бузургон. – Душанбе: Ирфон, 1986; Лирика Абд ар-рахмон Джамии.– М.: Наука, 1988., Ализода С.С. Фахрии Хирави и его место в истории персидско-таджикской литературы: диссертация кандидата филологических наук. – Душанбе, 2009. – 176 с.

⁵ ذبيح الله صفا، تاريخ ادبيات در ايران، ج 2 و 4، چ 8، تهران: ۱۳۵۰، فردوسی، ۱۳۷۸، سعيد نفیسی، تاريخ نظم و نثر در ايران. ج 1، تهران: فروغی، ۱۳۴۴، علی اصغر حکمت. تذکره مجالس النفايس. کتابخانه منوچهری. تهران، ۱۳۴۳ ش، هادی بيدکی. لطائفنامه فخری هروی. چاپ افشار، ۱۳۹۹ ش، هسام الدين راشدی. فخری و سه اثر او. مشهد، ۱۳۵۰ ش..

ma'lumotlar kiritilganligi, ba'zi shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq bayon etilmaganligi isbotlash;

Faxriy Hiraviyning sharhlarida tanqidiy uslubning yetakchiligi, shoirlarni ta'riflashda ijobiy sifatlar bilan birga ularning "lavand", "louboliy" kabi salbiy xislatlarini ham keltirilishi, bu muallifning axloqiy g'oyalarni targ'ib qilishdagi o'ziga xos uslubini namoyon etganligi hamda "Latoyifnoma"ning oxirida "Hazrati Osafsifoti"ga bag'ishlangan kichik bir bo'lim Shoh Ismoil Safaviyning vaziri Mirzo Shoh Husaynga bag'ishlab yozilganligi aniqlash;

"Latoyifnoma" asarining "Majolis un-nafois" va boshqa tarjimalaridan farqli tomonlari aniqlanib, muallif unga yana bitta majlis, ya'ni to'qqizinchi majlisni ilova qilganligi, bu majlisda Hazrat Navoiyning vasflari keltirilib, "Majolis un-nafois"da Navoiy tomonidan ismlari aytilmagan yana 189 ta shoir haqida ma'lumot berilganligi, "Latoyifnoma" birinchi tarjima ekanligi isbotlash;

"Majolis un-nafois"ning ruscha tarjimasi sanalgan "Собрание избранных" ilk bor asliyatdagi matn asosida ochib berilib, tarjima jarayonida eski o'zbek alifbosidagi yozuvni o'qish, tabdil va tarjimasini amalga oshirish jarayonidagi ma'no va shakl nuqtai nazardan nuqsonlar hamda bahsli o'rinlar ochib berish.

Tadqiqot obyekti. "Majolis un-nafois" tazkirasi, uning "Latoyifnoma" deb nomlangan forscha tarjimasi, dariy tilidagi tarjimasi hamda "Собрание избранных" deb nomlangan ruscha tarjimasi tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot predmetini "Majolis un-nafois"ning fors, rus va dariy tillaridagi tarjimalarida tarjimon mahorati, yondashuv va uslublari, ijodiy vorisiylik va o'ziga xoslik masalalarini qiyosiy tadqiq orqali ochib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsifiy tahlil, kontekst tahlili, tasniflash, kompleks tahlil, qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil hamda kognitiv-konseptual usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Majolis un-nafois"da keltirilgan shoirlardan ba'zilar haqidagi ma'lumotlarning "Latoyifnoma"da yo'qligi, ulardan ayrimlarining ismlarining boshqacha bayon etilganligi, tarjima qilingan ma'lumotlarga qo'shimcha ma'lumotlar kiritilganligi, ba'zi shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq bayon etilmaganligi isbotlangan;

Faxriy Hiraviyning sharhlarida tanqidiy uslubning yetakchiligi, shoirlarni ta'riflashda ijobiy sifatlar bilan birga ularning "lavand", "louboliy" kabi salbiy xislatlarini ham keltirilishi, bu muallifning axloqiy g'oyalarni targ'ib qilishdagi o'ziga xos uslubini namoyon etganligi hamda "Latoyifnoma"ning oxirida "Hazrati Osafsifoti"ga bag'ishlangan kichik bir bo'lim Shoh Ismoil Safaviyning vaziri Mirzo Shoh Husaynga bag'ishlab yozilganligi aniqlangan;

"Latoyifnoma" asarining "Majolis un-nafois" va boshqa tarjimalaridan farqli tomonlari aniqlanib, muallif unga yana bitta majlis, ya'ni to'qqizinchi majlisni ilova qilganligi, bu majlisda Hazrat Navoiyning vasflari keltirilib, "Majolis un-nafois"da Navoiy tomonidan ismlari aytilmagan yana 189 ta shoir haqida ma'lumot berilganligi, "Latoyifnoma" birinchi tarjima ekanligi isbotlangan;

“Majolis un-nafois”ning ruscha tarjimasini sanalgan “Собрание избранных” ilk bor asliyatdagi matn asosida ochib berilib, tarjima jarayonida eski o‘zbek alifbosidagi yozuvni o‘qish, tabdil va tarjimasini amalga oshirish jarayonidagi ma’no va shakl nuqtai nazardan nuqsonlar hamda bahsli o‘rinlar ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiyning Movarounnahr va Xuroson tazkirachilik maktabining shakllanishida tutgan o‘rni, “Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” tazkiralarining Eron kutubxona fondlarida saqlanayotgan nusxalari, tazkiraning fors, rus va dariy tillaridagi tarjimasini hamda nashri masalasiga doir yangi ilmiy ma’lumotlardan o‘zbek adabiyoti tarixini o‘qitishda, shuningdek, Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi bilan bog‘liq tadqiqotlarni bajarishda va mazkur masalalar tavsifiga oid o‘quv adabiyotlarini yaratishda tadqiqotning natijalari amaliy qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ilmiy materiallar to‘plangan;

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” va Faxriy Hiraviy “Latoyifnoma” tazkiralarining dunyo kutubxonalari va muzeylari fondida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari tavsifi ishlab chiqilgan hamda o‘zbek, rus, tojik, turk, eronlik, pokistonlik va afg‘onistonlik olimlarining masalaga doir ilmiy qarashlari tahlil qilingan;

“Majolis un-nafois” va uning forscha hamda ruscha tarjimalarining tadqiqot doirasida amalga oshirilgan qiyosiy tahlilidan Movarounnahr va Xurosonda yashab ijod qilgan yuzlab shoir, adib va davlat arboblarning hayotini, ijodiy faoliyatini o‘rganishga oid qimmatli ma’lumotlar ilmiy asosda shakllantirilgan;

“Majolis un-nafois” tazkirasining “Latoyifnoma” nomli forscha hamda “Собрание избранных” deb nomlangan ruscha tarjimasining ilmiy-badiiy uslubi o‘zaro qiyoslanib, ushbu ilmiy muammo yuzasidan asosli ilmiy xulosalar bayon etilgan;

ilm-fan rivoji, zullisonaynlik va sharh yozish an‘analarning temuriylar davri adabiy muhitidagi yuksalishi nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqot doirasida “Latoyifnoma” tazkirasining to‘qqizinchi bobi mazmun-mundariyasi, unda ilova qilingan tarixiy shaxslarga oid ma’lumotlar shu davrda yaratilgan tazkiralardagi ma’lumotlar asosida ilmiy jihatdan tekshirilgan, bundan tashqari to‘qqizinchi bob qo‘lyozma va toshbosma nusxalardagi matnlarni ilmiy jihatdan qiyoslash va tadqiq etish orqali zamonaviy kirill va lotin yozuviga ilk bor transliteratsiya qilingan. Natijada asliyatdagi matnni o‘qish va tushunishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ixtiloflar va nomuvofiqliklar bartaraf etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning o‘rganilayotgan davr tarixiy-badiiy voqeligi hamda ilmiy kuzatuvning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va matn tahlili usullariga asoslanganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, birlamchi manbalardan foydalanilganligi, O‘zbekistonda va xorijda soha mutaxassislar tomonidan olib borilgan izlanishlar, tadqiqot obyektini sifatida tanlangan asarlarning turli yillardagi nashrlari, shuningdek, ilmiy adabiyot va tarjima manbalariga tayanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyatidan filologiya yo‘nalishi va mutaxassisliklarida mumtoz adabiyotshunoslik bilan bog‘liq qiyosiy adabiyotshunoslik, fors-tojik adabiyoti, turkiy va forsiy xalqlarning adabiy aloqalari, adabiy manbashunoslik va

matnshunoslik, tarjimashunoslik va shu kabi boshqa sohalarda o‘qitiladigan fanlardan ma’ruza matnlari, maxsus seminarlar uchun o‘quv qo‘llanmalari yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, materiallaridan tarjima nazariyasi va amaliyoti, matnshunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik asoslari o‘quv predmetlari ta’limi uchun dasturlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda, maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarini tashkil qilishda material va uslubiy qo‘llanma sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” tazkiralari qiyosiy tadqiqi: an’ana va vorisiylik, badiiy uslub xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Majolis un-nafois”da keltirilgan shoirlardan ba’zilari haqidagi ma’lumotlarning “Latoyifnoma”da yo‘qligi, ulardan ayrimlarining ismlarining boshqacha bayon etilganligi, tarjima qilingan ma’lumotlarga qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilganligi, ba’zi shoirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning to‘liq bayon etilmaganligini isbotlashga oid xulosalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturining 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP- ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 21-iyuldagi 2062/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot ishining turkiy va forsiy tillarida yaratilgan tazkiralarning qiyosiy tadqiqi, an’ana va vorisiylik, badiiy uslub xususiyatlari to‘g‘risidagi tahlillar xulosasi o‘qituvchi va talabalarning tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik borasidagi bilimlarini oshirish hamda ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda xizmat qilgan;

Faxriy Hiraviyning sharhlarida tanqidiy uslubning yetakchiligi, shoirlarni ta’riflashda ijobiy sifatlar bilan birga ularning “*lavand*”, “*louboliy*” kabi salbiy xislatlarini ham keltirilishi, bu muallifning axloqiy g‘oyalarni targ‘ib qilishdagi o‘ziga xos uslubini namoyon etish hamda “Latoyifnoma”ning oxirida “Hazrati Osafsifoti”ga bag‘ishlangan kichik bir bo‘lim Shoh Ismoil Safaviyning vaziri Mirzo Shoh Husaynga bag‘ishlab yozilganligini aniqlashga oid taklif-tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational Linguistics at Central Asian universities” nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 25-iyuldagi 2083/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tilshunoslik va adabiyotshunoslik terminlarining elektron ma’lumotlar bazasini yaratish jarayonida o‘zbek tilining tazkirachilik va zullisonaynlik an’analariga oid atamalari va ularning ijtimoiy-tarixiy mazmun-mohiyatini ifodalash takomillashgan;

“Latoyifnoma” asarining “Majolis un-nafois” va boshqa tarjimalaridan farqli tomonlarini aniqlash, muallif unga yana bitta majlis, ya’ni to‘qqizinchi majlisni ilova qilganligi, bu majlisda Hazrat Navoiyning vasflari keltirilib, “Majolis un-nafois”da Navoiy tomonidan ismlari aytilmagani yana 189 ta shoir haqida ma’lumot

berilganligi, “Latoyifnoma” birinchi tarjima ekanligini isbotlashga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan И-204-4-5-son “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 06-iyuldagi 2796/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada, turkiy va forsiy tillarda yaratilgan tazkiralarning ilmiy-badiiy uslubi chog‘ishtirma tahlili asosidagi yangi ma’lumotlar bilan loyiha resurslari takomillashuviga erishilgan;

“Majolis un-nafois”ning ruscha tarjimasini sanalgan “Собрание избранных” ilk bor asliyatdagi matn asosida ochib berilishi, tarjima jarayonida eski o‘zbek alifbosidagi yozuvni o‘qish, tabdil va tarjimasini amalga oshirish jarayonidagi nuqsonlar hamda bahsli o‘rinlar mavjudligini isbotlashga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2022-yil 24-iyul kuni efirga uzatilgan “Najot ta’limda” ko‘rsatuvining navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 26-iyuldagi 01-12/269-son ma’lumotnomasi). Natijada, teleradiokompaniya ijodiy jamoasi tazkiranavislik tarixi, badiiy asarlar tarjimasini masalalari haqidagi xulosalarni teletomoshabinlarga yetkazishi uchun zamin yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan 15 ta ilmiy maqola chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan 8 tasi ilmiy jurnallarida, 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, 121 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, Dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi hamda uning xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sharq tazkirachiligida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari hamda tarjimalarining tutgan o‘rni va ahamiyati**” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning “Movarounnahr va Xuroson tazkirachilik maktabining shakllanishi, rivoji va adabiy an‘analari” deb nomlangan birinchi faslida tazkira janri va tazkiranavislik maktabining shakllanishi, jahon va o‘zbek adabiyotshunsligi hamda tarjimashunosligida mazkur janrning ahamiyati yoritilgan.

XV-XVI asrlarda ilm, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda har tomonlama rivojlanish va o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Bu asrlarda adabiy hayot asosan Hirot, Samarqand, Tabriz va Buxoro shaharlarida rivojlandi. Mazkur shaharlarning har birida adabiy markazlarlar shakllangan bo'lib, bu markazlar bir-birlariga doim raqobat ko'rsatib kelgan. Bular orasida Hirot adabiy markazi adabiyot sohasi bo'yicha eng namunali edi. Hirot maktabining asoschilari Mavloni Abdurahmon Jomiy va Mir Alisher Navoiylar forsiy-tojik va turkiy-o'zbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar va yuzlab shogirdlarni tarbiyalab kamolotga yetkazganlar. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hirotga turli shaharlar va mintaqalardan yosh ijodkorlar tahsil olish uchun kelib, Jomiy hamda Navoiydek buyuk insonlarning huzuriga tashrif buyurish, ulardan pand-nasihat olish va ularning imtihonlaridan o'tishni o'zlari uchun sharaf deb bilardilar. Ular bu yerda o'z iste'dodlarini mukammallashtirardi, buyuk shoirlar she'rlariga naziralar aytardi va adabiy anjumanlarda bir-birlarining she'rlarini muhokama qilardi. Zayniddin Mahmud Vosifiy, Badriddin Hiloliy, Mavloni Hotifiy va boshqalar shular jumlasidandir.

“Tazkira” so'zi lug'atda “zikir qilish”, “eslash” ma'nosini ifoda etadi va adabiy-ilmiiy atama sifatida shoirlar, olimlar va din ulamolari tarjimai holiga bag'ishlangan asar hisoblanadi.⁶ Tazkira adabiyotshunoslik va tarix yo'nalishlarida olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari uchun asosiy manbalarning biri sifatida xizmat qiladi. Ilgari tarjimai holga bag'ishlangan asarlarga “tabaqot”, “ansob”, “mu'jam” hamda “axbor” kabi nomlar ham berilgan. Hozirgi zamonda “tazkira” deganda asosan shoir va adiblarning hayot va faoliyatiga bag'ishlangan asar tushuniladi⁷. G'arb adabiyotida “antologiya” deb nomlangan adabiy asar ham tazkiraning bir turi hisoblanadi. Shoirlarning hayot va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar juda ko'p bo'lib, ularning aksariyati tazkira nomi bilan mashhur bo'lgan. Albatta bundan mustasno bo'lgan ba'zi bir asarlar ham mavjud. Masalan, Alixon Mubtaloiyning “Muntaxab ul-ash'or” nomli asari va yana bir nechta shu kabi asarlarni tilga olishimiz mumkin.

Tazkirachilik tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu turdagi asarlarning yaratilishi, aynan tazkira uslubida ijod qilish, asosan, Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelganligiga guvoh bo'lamiz. Tazkirachilik maktabi ham uzoq yillar davomida ushbu mintaqada shakllangan va undan keyin tazkirachilik san'ati boshqa mintaqalarga tarqalgan. Tazkirachilik maktabi rivojlanganidan keyin adiblar orasida ushbu janrda ijod qilish an'anaga aylandi va tazkiraviy asarning o'zi mavzu, mundarija, badiiy til va uslub jihatidan shakllandi. Xususan, XV asrlarga kelib tazkira janri juda rivojlandi. Ushbu davrda Alisher Navoiy tomonidan “Majolis un-nafois” tazkirasini ta'lif etilganligi, mazkur tazkiraning tarjimalari va boshqa mutafakkirlar tomonidan yaratilgan tazkiralar XV asrda tazkirachilik maktabining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tazkira adabiyot tarixini o'rganishda ishonchli va qimmatli manbalardan biridir. Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi hukmronlik qilgan zamonlarda tazkiranavislik an'anasi nihoyat rivojlandi va bunga Alisher Navoiy,

⁶Ромпурӣ, Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс-ул-луғот. / М.Ғ. Ромпурӣ. - Ҷ. 1. – Душанбе: Адиб, 1987. – 186 с.

⁷دایره المعارف بزرگ اسلامی. زیر نظر کاظم موسوی. تهران، سازمان انتشارات وزارت فرهنگ و ارشاد اسلامی، چاپ اول. ۱۳۸۱۷

Abdurahmon Jomiy va keyinchalik Faxriy Hiraviy kabi tazkiranavis ulamolar katta hissa qo‘shganlar.

Bobning **“Majolis un-nafois” tazkirasining fors va rus tillaridagi tarjimalarining kompozitsion va badiiy xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi faslida “Majolis un-nafois” tazkirasining fors va rus tillaridagi tarjimalari kompozitsion xususiyatlari, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishlaridagi ahamiyati hamda badiiy tamoyillari tahlil qilingan.

“Majolis un-nafois” va tarjimalarini qiyosiy tadqiq etish uchun bu asarning www.ziyouz.com elektron kutubxonasidagi kirill yozuviga transliteratsiya qilingan nusxasi, Alisher Navoiyning elektron 20 tomlik mukammal asarlar to‘plamidan⁸ joy olgan nusxasi, “Latoyifnoma”ning 1931-yili doktor Muhammad Abdulloh tomonidan Pokistonning Panjob universiteti nashriyotida chop qilingan nusxasi⁹ hamda Abdulg‘afur Dastyorning 2019-yili nashr etilgan tarjimasidan foydalandik. Aytish joizki ba’zi bir olimlar, jumladan, Hodi Bedakiy o‘z tadqiqot ishi jarayonida “Latoyifnoma”ning mazkur nusxasidan foydalanmoqchi bo‘lgan, ammo undagi kamchiliklar boshqa nusxalarga nisbatan ko‘proq ekanligi sababli foydalanishdan voz kechgan. Doktor Bedakiy bilan ushbu nusxa va Abdulg‘afur Dastyor tarjimasida suhbat qilganimizda ikkala nusxani ham “nusxahoye mug‘lat” ya’ni xatolarga to‘la nusxalar deb baho bergan edi. Albatta tadqiqot ishi uchun nusxalarning eng mukammal va kamchiliklardan xoli bo‘lganini tanlash lozim, ammo biz “Latoyifnoma”ning mazkur nusxasi, shuningdek Abdulg‘afur Dastyorning tarjimasini hanuzgacha tadqiq etilmaganligi sababli tadqiqot ishimizning asosiy predmeti sifatida tanlashga qaror qildik. Undan tashqari mazkur nusxalardagi nuqsonlarning asosiy omillarini oshkor qilishni zarur deb bildik. Tadqiqot doirasida “Majolis un-nafois”ning Suyima G‘aniyeva tomonidan amalga oshirilgan ruscha tarjimasini ham asliyat va boshqa tarjimalar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsad qilingan. Nusxalarni tanlash va tadqiq etish uchun tarjimashunoslikka taalluqli bo‘lgan boshqa masalalarga ham e’tibor qaratdik. Jumladan tarjimaning bevosita yo bilvosita amalga oshirilganligi, tarjima jarayonida uchinchi tildan foydalanish zarurati hamda tarjima qilingan asarni ko‘chirgan xattotning til bilish darajasi kabi masalalar asliyat va tarjimalarning qiyosiy tahlili jarayonida e’tiborga olindi.

Alisher Navoiy asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Uning “Majolis un-nafois” tazkirasini turkiy tilda yozilgan eng mashhur va eng birinchi tazkira sifatida tan olingan. Navoiyning bu asari bir necha marotaba fors tiliga tarjima qilingan va undan tashqari Suyima G‘aniyeva tomonidan rus tiliga ham tarjima qilingan. Asar tarixiy ahamiyatga ega ekanligi sababli ko‘plab tarixchilar, sharqshunoslar va adabiyotshunoslar tomonidan asosiy manba sifatida qo‘llanilgan. Shu sababli “Majolis un-nafois” tazkirasidan olingan matnlar tarjimasini G‘arb va Sharq tadqiqotchilarining ilmiy asarlarida ko‘p uchraydi. Ushbu tazkira xususida Xondamir “Makorim ul-axloq” asarida shunday yozgan: “Bu aziz kitob hazrati xoqon Shohruh Mirzo podshohligi davridan boshlab, shu zamonga qadar yer yuzini

⁸<http://navoi.natlib.uz:8101/uzb/> (11.06.2023)

⁹لطایفنامہ. محمد عبداللہ. نشریات دانشگاه پنجاب. پاکستان. ۱۹۳۱ میلادی.

ravshan vujudlari bilan bezagan va bezab turgan olim va shoirlardan ko‘plarining ba’zi sifatlaridan va ahvollaridan bayon qiladi”¹⁰.

Ta’kidlash joizki, tazkira vorisiylik xususiyatiga ega bo‘lgan asar hisoblanib, bu kabi asarlarda shoirlar va boshqa atoqli insonlarning tarjimai holi, asarlari va ularga taalluqli bo‘lgan tarixiy hamda ijtimoiy ma’lumotlar ma’lum darajada bayon etiladi. “Majolis un-nafois” birinchi bo‘lib fors-tojik tiliga tarjima qilingan. Forscha tarjimalar orasidagi qadimiy hamda boshqa tarjimalarga nisbatan mukammalrog‘i Faxriy Hiraviyning “Latoyifnoma”sidir. Mir Alisher Navoiy asarlarinig tarjimalarini tadqiq etish, qadimgi qo‘lyozmalarni o‘rganish va kitobxonlar e’tiboriga havola etish, umuman aytganda, Navoiyning olamshumul adabiy merosini o‘rganish uchun yillar davomida mehnat qilgan buyuk olimlar juda ko‘p. Yirik adabiyotshunos olim professor R.Vohidov birinchilardan bo‘lib “Majolis un-nafois”ning forsiy tarjimalari xususida maxsus tadqiqot ishini amalga oshirgan. Professor R. Vohidovning ushbu tadqiqot ishi “Majolis un-nafois” tarjimalariga oid olib boriladigan har qanday izlanishlarga asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qiladi. Undan tashqari, “Majolis un-nafois” tazkirasini o‘rganish, uning tarjimalari va qadimgi qo‘lyozmalarni o‘rganish bobida ko‘p yillar davomida zahmat chekkan mashhur olim Suyima G‘aniyevaning adabiy ishlarini barcha navoiyshunos olimlar tan olgan.

“Majolis un-nafois” tazkirasini tarjimalarining zarurati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlab o‘tilgan. Ayniqsa, fors-tojik adabiyotining tadqiqi yo‘lida faoliyat olib borgan tadqiqotchilar mazkur tazkiraning eng asosiy manba ekanligiga ishora etganlar. Bunga misol sifatida bir qancha eronlik tadqiqotchilarning fikrlarini keltirishimiz mumkin. Jumladan, eronlik tadqiqotchi, Mashhad Ozod Islom universitetining professori, doktor Rizo Ashrafzoda “Majolis un-nafois”da tanqid va tanqidchilik usuli” (شیوه ی نقد و نقادی در مجالس النفایس) nomli maqolasida “Majolis un-nafois” fors adabiyotining eng qimmatli va arzigulik manbalaridan biridir”, deb ta’kidlagan.¹¹ Maqola muallifi “Majolis un-nafois”ning yana bir olamshumul xususiyatiga alohida e’tibor qaratgan. Uning aytishicha, “Majolis un-nafois”ning yuksak bahoga loyiq ekanligini undagi badiiy til jihatidan ham bilib olishimiz mumkin. Bundan oldingi tazkiralarga e’tibor bersak, ko‘p shoirlar haqidagi ma’lumotlar umumiy va xalq orasida ommaviylashgan sodda iboralar bilan bayon etilgan. Ammo Navoiyning tazkirasini yuksak tarixiy ahamiyatga ega bo‘lganligidan tashqari, badiiy til jihatidan ham benihoyat muhtashamdir. Ko‘rinib turibdiki, “Majolis un-nafois” tazkirasining olamshumul ahamiyati butun dunyo ahli tomonidan e’tirof etilgan va uning har tomonlama o‘rganilishi va tadqiq etilishi hanuzgacha davom etmoqda.

Eronlik tanqidchi olim Aliasg‘ar Hikmat o‘z tadqiqot asarida tazkiraning fors tiliga bir necha marotaba tarjima qilinganligini ta’kidlab o‘tgan, ammo faqatgina uch nafarning ismlarini eslatib o‘tgan. Taniqli adabiyotshunos olim R.Vohidovning “Majolis un-nafois”ning forsiy tarjimalari nomli ilmiy asarlari 1984-yilda nashr

¹⁰Хондамир, Мақорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Фан, 1967, – Б.58.

¹¹www.SID.ir (08.12.2022)

etilgan va bu ilmiy asarda “Majolis un-nafois”ni o‘tgan asrning 80-yillarigacha nashr etilgan forsiy tarjimalari xususida mukammal ma’lumot berilgan.¹²

“Majolis un-nafois”ning boshqa bir tarjimasi “Baqiyai naqiya” deb ataladi va Shayxzoda Nemardoniy qalamiga mansubdir. Mazkur risola buyuk alloma va shoirlarga havola etilganligi uchun Shayxzoda Nemardoniy tomonidan shunday nomlangan. Tarjima muallifining o‘zi shunday izohlagan: “Majolis un-nafois” Hazrat Navoiy tomonidan saralangan va o‘z zamonasining mashhur insonlari sanalmish shoirlar xususida tarixiy ma’lumot beradigan qimmatli asardir. Shu sababdan bu asarning tarjimasiga “Baqiyai naqiya” nomini berish ravo ko‘rildi”.¹³

“Majolis un-nafois”ning forscha tarjimalari orasida Abdulg‘ani Dastyorning tarjimasi qadimgi tarjimalarga nisbatan ancha farqli xususiyatga ega. Birinchi navbatda ta’kidlab o‘tish kerakki, muallif-tarjimoning o‘zi bu tarjimani “Majolis un-nafois”ning dariy tilidagi tarjimasi (“ترجمه درى مجالس النفايس”) deb nomlagan.¹⁴ Bu yerda “Majolis un-nafois” tazkirasining ushbu tarjimasi va boshqa forsiy tarjimalar orasidagi farqiyatni ko‘rsatish uchun fors-dariy tilining lingvistik xususiyatlariga e’tibor qaratmog‘imiz lozim. Ma’lumki, fors, dariy va tojik tillari aslida bir-birlariga juda yaqin, ammo o‘xshashlik bilan birga ularning farqli tomonlari ham mavjud. Abdulg‘afur Dastyor tarjimasining farqli jihatlaridan biri - aynan shu forsiy va dariy tillari, aniqrog‘i Eron va Afg‘oniston dialektlari o‘rtasidagi tafovutga aloqador, deb baholaymiz.

“Majolis un-nafois” tazkirasi rus tiliga Suyima G‘aniyeva tomonidan tarjima qilingan va 1970-yili nashr etilgan¹⁵. Ushbu tarjimani “Собрание избранных” deb nomlagan va uni Sayid Hasan Ardasher hamda Pahlavon Mahmudlarni hayot va faoliyatlarining tarjimalari bilan bitta jildda nashr etgan. Rus olimi, mashhur navoiyshunos S.N. Ivanov nashr jarayonida mas’ul kotib sifatida qatnashgan. Asar tarjimasining oxirida keltirilgan xulosada S. Ivanov “Majolis un-nafois”ning ilmiy, adabiy, axloqiy, tarixiy va boshqa ahamiyatga molik jihatlarini ta’kidlab o‘tgan va Suyima G‘aniyevaning mazkur tarjimasini yuqori baholagan. Uning ta’kidlashicha, buyuk olim “Majolis un-nafois”ni turli yozma va toshbosma nashrlarini jamlab 1961-yilda uning ilmiy-tanqidiy matnini shakllantirgan. “Собрание избранных” unvoni ostidagi ushbu tarjima esa Suyima G‘aniyevaning buyuk o‘zbek mumtoz adabiyoti asoschisi asarlarini tadqiq etish yo‘lidagi xizmatlarining davomidir¹⁶.

Bobning uchinchi fasli **“Majolis un-nafois” asarida zullisonaynlik talqini va sharh yozish an’anasining tarjimalardagi ifodasi**” deb nomlangan bo‘lib, u XIV-XV asrlarda rivojlanib borgan zullisonaynlik an’anasi hamda sharh yozishning o‘ziga xos usullarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Zullisonaynlik - ya’ni ikki tilda ijod qilish uzoq yillardan beri muhim ijodiy an’ana sifatida namoyon bo‘lgan va buyuk shoir-u adiblarning ikki xalq tili va madaniyatini tarannum etuvchi asarlarida o‘z aksini topgan. Qadim zamonlardan

¹²Воҳидов. Р. “Мажолис ун-нафос”нинг таржималари/ масъул муҳаррир: Б. Валихўжаев. – Т.: Фан, 1984. – Б. 145.

¹³[https://uza.uz/\(08.12.2022\)](https://uza.uz/(08.12.2022))

¹⁴عبد الغفور دستيار. ترجمه درى مجالس النفايس. مزار شريف، 1394 خورشيدى.

¹⁵ Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, – С 210

¹⁶ Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, – С 219

Islom dini dunyoning ko‘plab mamlakatlariga tarqalgani bois arab tili va madaniyati ham keng tarqalgan va Islomni qabul qilgan xalqlar o‘z asarlarini ham ona tillarida ham arab tilida ijod qilganlar. Yillar o‘tib ikki tillilik, ya’ni zullisonaynlik an’anaga aylangan. Arab va fors tillarida ijod qilgan shoirlar o‘z ijod namunalari bilan mashhur bo‘la boshladilar. Masalan, fors tilida ijod qilgan birinchi shoira Balxiy taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Robia binti Ka’b aslida arab sarkardalarining oilasida tug‘ilgan. Oilasi bilan Xurosonga ko‘chib kelib, Balx shahrida yashagan. Robia Balxiy arab va fors tillarida ijod qilgan zullisonayn shoirlarining birinchilaridan hisoblanadi. Undan tashqari ko‘plab shoirlar va olimlar o‘z asarlarini ham arabiy va ham forsiyda yaratganlar, masalan, Ibn Sino, Umar Xayyom va boshqalar.

Keyinchalik bu an’ana forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan shoirlar tarafidan davom ettirildi. Forsiy va turkiy tillarda ijod qiluvchi shoirlarning eng buyuk namoyandasi bu shaksiz, Mir Alisher Navoiydir. Ma’lumki, Navoiyning forsiy va turkiy tillarda bitilgan ijod namunalari dunyo adabiyotidagi eng sara va eng samarali asarlar qatoriga kiradi. Navoiydan oldin ham turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar bo‘lgan, ammo Navoiyning zahmatlari va mislsiz iste’dodi natijasida ikki tilda ijod qilish an’anasi g‘oyat yuksaldi. Shu bois Navoiyni forsiy va turkiy tillarda ijod qilish an’anasining asoschisi, deb baholasak xato bo‘lmaydi. Mir Hazratlarining ikki taxallus bilan, ya’ni turkiy asarlarini Navoiy va forsiy asarlarini Foniylar taxallusi bilan ijod qilganlari barchaga ma’lum. Ammo Navoiyning zullisonaynlik an’anasi rivojiga qo‘shgan hissasi faqatgina Navoiy va Foniylar taxalluslari bilan ijod qilgan devonlari bilan chegaralanib qolmaydi. Zullisonaynlik an’anasi Mirning barcha asarlarida o‘z aksini topgan, jumladan, “Majolis un-nafois” tazkirasida. Ma’lumki mazkur tazkirada ismlari zikr qilingan shoirlarni asosan fors tilida ijod qilganlar hamda turkiy tilda ijod qilgan shoirlar tashkil etadi. Bular orasida zullisonayn shoirlar, ya’ni ham forsiy va ham turkiy tillarda ijod qilgan shoirlar ko‘p. “Majolis un-nafois” tazkirasidagi zullisonaynlik an’anasi va uning boshqa shoirlar ijodiyotiga bo‘lgan ta’siri xususida tadqiqotchi olim T. Sultonov o‘z tadqiqot ishida quyidagi ma’lumotni keltirgan: “Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkisasi va ushbu asar ta’sirida ozarbayjon adabiyotida yaratilgan Sodiqbek Afshor Sodiqiyning “Majma’ ul-xavos” tazkirasini g‘oya, mazmun, uslub va shakl jihatdan qiyosiy tadqiq etilganda, “Majolis un-nafois” asariga XV asrdagi zullisonayn adabiy muhitning xususiyatiga ko‘ra Hirot, Xuroson va Ozarbayjonda yashab, ham turkiy tilda, ham fors-tojik tilida ijod qilgan 459 nafar shoir qamrab olinganligi hamda “Majma’ ul-xavos” tazkirasida esa XVI-XVII asrlarda usmonli turk davlati tuprog‘idan boshlab Eron, Ozarbayjon, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonga qadar bo‘lgan hududlarda istiqomat qilib, ozarbayjon va fors-tojik tillarida qalam tebratgan 369 nafar shoir haqida ma’lumot keltirilganligi aniqlandi”.¹⁷

Zullisonaynlik an’anasi Navoiy va Jomiy bilan bo‘lgan ilmiy-adabiy munosabati orqali qardosh xalqlarning an’anasiga aylandi. Bu haqda “Navoiyshunoslik” kitobida quyidagicha yoziladi: “Foniylar taxallusi bilan yaratgan forsiy she’rlari nafaqat badiiy adabiyot vakillari, balki forsiyzabon xalqlar orasida

¹⁷Султонов Т.Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содикий асарлари мисолида) //ФФДА, Тошкент, 2019. – Б. 55.

ham katta shuhrat qozongani buyuk mutafakkir adabiy merosining jahonshumul ahamiyatini ko'rsatuvchi dalillardan biridir".¹⁸ Bu an'ana 700 yillik tarixga ega bo'lib, o'zbek va fors-tojik adabiyotining ko'plab namoyandalarini hamkorlikka chaqirgan. Zullisonaynlik an'anasi Jomiy va Navoiydan tortib bugungi kunga qadar ikki xalq adabiyotida ko'zga tashlanadi. Zullisonaynlik an'anasi ko'proq mulamma'san'ati bilan adabiyotga kirib kelgan. Mulamma'da shoir bir misrani ona tilida bir misra'ni esa boshqa tilda ijod qilishidir.¹⁹ Fors-tojik adabiyotida arabcha va o'zbekcha mulamma'lar zullisonaynlikning bir namunasi hisoblanadi. Sharq she'riyatida adabiy ta'sir jarayoni har bir shoir ijodida keng yoyilgan. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz, Jomiy va Navoiy adabiy merosi ta'siri barcha xalqlar adabiyotida sezilarli darajada namoyon bo'lgan.²⁰

Navoiy davrida zullisonaynlik muhim adabiy an'ana sifatida shakllanganligidan tashqari shoirlarning ilm va adab ahli orasidagi mavqeini ko'taruvchi vosita ham bo'lgan. Buni Navoiyning quyidagi she'ridan anglab olishimiz mumkin:

*Ma'nii shirini ranginam ba turki behad ast,
Forsiyam la'li durhoi samin gar bingari.
Go'yo dar rost bozori suxan bikushodaam,
Yak taraf do'koni qannodiyu, yak so'zargari.*

Mazmuni: Mening turkiy tilda rangin va shirin ma'noli she'rlarim ko'p, forsiy tilda ham la'l-u durlarim hisobsiz. Go'yo ro'parangda so'z bozorini ochib qo'yibman: bir tarafda shirinliklar do'koni bo'lsa, ikkinchi tomonda zargarlik do'koni. Ya'ni Hazrat Navoiy fors-tojik tilidagi she'riyati bilan turkiy tildagi she'riyatini teng baholagan.

Tadqiqotning **"Majolis un-nafois" tazkisasi va uning tarjimalariga xos ilmiy-badiiy uslubning chog'ishtirma tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobi ikki fasldan iborat. Bobning **"Asliyat va forscha tarjimalarning badiiy tili, strukturasi va semantik xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi faslida "Majolis un-nafois" tazkisasi va uning forscha tarjimalari, xususan Faxriy Hiraviy va Abdulg'afur Dastyor tarjimalari qiyosiy tadqiq etilgan.

Tarjima va asliyat o'rtasidagi asosiy farqlar "Majolis un-nafois"da zikr qilingan shoirlardan ba'zilarining "Latoyifnoma"da yo'qligi, ba'zi bir shoirlar ismining boshqacha bayon etilganligi, tarjima qilingan ma'lumotlarga qo'shimcha ma'lumotlar kiritilganligi, ba'zi shoirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq bayon etilmaganligi va shular kabilardan iborat. Birinchi navbatda ismlari "Majolis un-nafois"da mavjud, lekin "Latoyifnoma"da zikr qilinmagan shoirlarni majlislar kesimida ta'kidlab o'tamiz.

Birinchi majlis: Mavlono Amiriy, Mavlono Mushtariy, Mavlono Ali Dardo'zd, Mavlono Tole'iy, Mavlono Muhyi;

Ikkinchi majlis: Mavlono Abdurazzoq, Hofiz ali Jomiy, Mavlono Abdusamad Badaxshiy, Mavlono Burujiy, Mavlono Nizom;

¹⁸Сирожиддинов Ш., Юсупова Д., Давлатов О. Навоийшунослик. – Т.: Тамаддун, 2018. – Б 33.

¹⁹ Зехний Т. Санъати Сухан. – Душанбе: Маориф, 1992, Б 155.

²⁰ Джамаҳмадов. К. А, Ҳожи Муҳаммад Шаҳидий ижодида зуллисонайнлик анъанасининг таъсири // Алишер Навоий халқаро журнали, - №1/2, 2011, – Б. 155-165.

Uchinchi majlis: Mavlono Muzhir, Sayid Qutb Lakadang, Mavlono Soyiliy, Mavlono Zoriy, Mavlono Mir Ali, Pahlavon Kotib;

To'rtinchi majlis: Mavlono Husayn Voiz, Sulton Ibrohim Mushashsha', Mavlono Hoji Muhammad, Hofiz muhammad Sultonshoh, Mavlono Faxriy (Faxriy Hiraviyning o'zi bo'lishi mumkin), Mir Sayyid Husayn Abivardiy, Mavlono Qosim, Mavlono Shihob, Mirak Husayn, Mavlono Sharif Bog'i Shahriy, Mavlono Shoh Ali, Mavlono Bahlul, Shayx Abdullo, Pahlavon Darvesh Muhammad, Muhammad Ali, Pahlavon Sulton Ali Go'shtigir, Xoja Qutbiddin, Xoja Yusuf Mehna, Xoja Yahyo;

Beshinchi majlis: Mir Ibrohim, Mir Habibulloh;

Oltinchi majlis: Orif Farkatiy, Mavlono Nosiriddin;

Yettinchi majlis: Boysung'ur Mirzo, Sulton Mas'ud Mirzo, Sulton Ali Mirzo.

Sakkizinchi majlis faqatgina bir kishi, ya'ni Sulton Sohibqiron Husayn Boyqaroga bag'ishlangan va shu bois ushbu majlisda yuqoridagi majlislarda mavjud bo'lgan kamchiliklar yo'q, ammo Husayn Boyqaroning "Majolis un-nafois"da keltirilgan she'rlari namunalari "Latoyifnoma"da yo'q.

Yuqorida keltirilgan tahlil natijasiga ko'ra, "Latoyifnoma"da 43 nafar shoirning ismi keltirilmagan. Buning albatta o'ziga yarasha sabablari bor. Birinchidan, tarjima jarayonida muallifning e'tiboridan chetda qolgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bir necha marotaba qayta kitobat qilingan asarda xattotlarning xatosi bilan tushib qolgan bo'lishi ham mumkin. Bunga aniqlik kiritish uchun "Latoyifnoma"ning o'zini boshqa nusxalari bilan solishtirib ko'rish maqsadga muvofiq ko'rindi. Ba'zi shoirlar ismlarining "Latoyifnoma"da yo'qligining yana bir aniqroq sababi shuki, "Majolis un-nafois"ning birinchi tahririda bir qancha shoirlarning ismlari bo'lmagan va 1498-yilda ikkinchi marotaba tahrir qilinganida tazkiraga ularning ismlari kiritilgan. "Latoyifnoma" esa "Majolis un-nafois"ning birinchi tahriridan tarjima qilingan bo'lishi mumkin. Ushbu fikrning haqiqatga yaqinroq ekanligini isbotlash uchun ikkita faktga tayanib xulosa chiqarishimiz mumkin.

1. "Latoyifnoma"da ismlari zikr qilinmagan shoirlar orasida Mavlono Faxriy ismi ham bor. "Majolis un-nafois"ning izoh va tarjima qismida esa ushbu ismga oid quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "Majolis un-nafois"ning birinchi tahririda bu shoir yo'q, u keyin ikkinchi tahrirda (1498-yil) kiritilgan. Forsiy tarjimalar ham asos e'tibori bilan avvalgi tahrir matnidan qilingan. Fikrimizcha, bu "Majolis un-nafois"ning birinchi tarjimoni Faxriy Hiraviy bo'lishi kerak. Faxriyning to'la ismi Sulton Muhammad ibn Amir Muhammad (tug'. yili noma'lum, Hirot – vaf. 1562-63, Hindiston) shoir va adabiyotshunos..."²¹. Demak, "Latoyifnoma" birinchi tahrir matnidan tarjima qilingan va Mavlono Faxriy, ya'ni tarjimonning o'zi va boshqa shoirlar shu sababdan "Latoyifnoma" tazkirasida ham zikr qilinmagan.

2. Yana bir dalil shuki, "Latoyifnoma"da zikr qilinmagan shoirlarning asosiy qismi "Majolis un-nafois"dagi majlislarning oxirida keltirilgan. Masalan, birinchi majlisning oxiridan joy olgan to'rt nafar shoir "Latoyifnoma"da yo'q. Bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, ushbu to'rt nafar shoir birinchi tahrirda ham zikr qilinmagan va keyin kiritilgan. Ushbu holatni yettinchi majlisda ham ko'rishimiz mumkin. Yettinchi majlisning oxirida zikr qilingan uch nafar shaxs,

²¹ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами, Йигирма томлик. Ўн учинчи том. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан. 1997. Б. – 16.

ya'ni Boysung'ur Mirzo, Sulton Mas'ud Mirzo va Sulton Ali Mirzolar "Latoyifnoma" da zikr qilinmagan²². Ma'lumki, bu uch nafar shoir ham "Majolis un-nafois"ning ikkinchi marotaba tahrir qilinganidan keyin kiritilgan.

Asliyat va tarjimaning yana bir farqli jihati shoirlar ismlaridagi tafovutdir. Ushbu farqli jihatni ham mufassalroq bayon etish uchun har bir majlisga tegishli bo'lgan ismlarni alohida ta'kidlash maqsadga muvofiq deb bilamiz va quyidagi jadvalni havola etamiz:

"Majolis un-nafois"		"Latoyifnoma"	
Lotin yozuvida	Arab alifbosiga asoslangan yozuvda	Lotin yozuvida	Arab alifbosiga asoslangan yozuvda
Birinchi majlis			
Mavloni Husayn Xorazmiy	مولانا حسين خوارزمی	Mavloni Hasan Xorazmiy	مولانا حسن خوارزمی
Mavloni Ashraf	مولانا اشرف	Mavloni Sharaf Xiyoboniy	مولانا شرف خیابانی
Mavloni Ruhiiy Yoziriy	مولانا روحی یازری	Mavloni Ruhiiy Poziriy	مولانا روحی پازری
Mavloni Sohii Balxiy	مولانا صاحب بلخی	Mavloni Sohii Sharifiy	مولانا صاحب شریفی
Mir Shohiiy	میر شاهی	Amir Shohiiy	امیر شاهی
Ikkinchi majlis			
Mir Yodgorbek	میر یادگار بک	Amir Yodgor	امیر یادگار
Darvesh Mansur	درویش منصور	Darvesh Mansur Sabzavoriy	درویش منصور سبزواری
Sayid Kamol Kachkul	سید کمال کچکول	Sayid Kamol Kajuliy	سید کمال کجولی
Mir Imod	میر عماد	Xoja Muayyad Devona	خواجه موید دیوانه
Mavloni Volahiiy	مولانا والهی	Mavloni Vola	مولانا واله
Harimiy Qalandar	حریمی قلندر	Mavloni Harimiy	مولانا حریمی
Mavloni Mir Arg'un	مولانا میر ارغون	Mavloni Arg'un	مولانا ارغوان
Mavloni Lutfiy	مولانا لطفی	Lutfiy Xattot	لطفی خطاط
Mirzo Hoji Sug'diy	میرزا حاجی سعدی	Mirzo Hoji Muannadiy	میرزا حاجی معندی
Mavloni Bilol	مولانا بلال	Mavloni Biloliy	مولانا بلالی
Uchinchi majlis			
Mavloni Abdullo	مولانا عبدالله	Mavloni Abdulloh Hotifiy	مولانا عبدالله هاتفی
Mavloni Shavqiy	مولانا شوقی	Darvesh Shavqiy	درویش شوقی
Mavloni Nargis	مولانا نرگس	Mavloni Nargisiy	مولانا نرگسی
Mavloni Salimiy	مولانا سلیمی	Mavloni Samoiliy	مولانا سمایی
Mir Hoj	میر حاج	Sayid Mirhoj	سید میرحاج
Mavloni Jamshid	مولانا جمشید	Mavloni Jamshid Muammoiy	مولانا جمشید معمایی
To'rtinchi majlis			
Mavloni Muhammad Badaxshiy	مولانا محمد بدخشی	Mavloni Badaxshiy	مولانا بدخشی
Mavloni Safiy	مولانا صفی	Mavloni Safiuddin	مولانا صفی الدین
Mavloni Pomiiy	مولانا پامی	Mavloni Nomiyy	مولانا نامی
Muhammad Noiniy	محمد ناینی	Mavloni Muhammad Nomaniiy	مولانا محمد نامنی
Mavloni Sulton Ali Qoyiniy	مولانا سلطان علی قاینی	Darvesh Sulton Ali	درویش سلطان علی
So'fi Pari Sesadsola	صوفی پری صدساله	Darvesh Sufiy	درویش صوفی
Oltinchi majlis			
Ahmad Hojibek	احمد حاجی بک	Hoji Vafoiy	حاجی وفايي

Asliyat va tarjimani qiyosiy tahlil qilish natijasida "Majolis un-nafois" tazkirasining transliteratsiya qilinishi jarayonida ham ba'zi bir imloviy xatoliklarga

²²Shu asar, –B. 98.

yo‘l qo‘yilganligiga guvoh bo‘ldik. Imloviy xatolar asosan forscha she‘rlarning tabdilida yuz bergan.

Mazkur bobning ikkinchi fasli **“Asliyat va ruscha tarjimada badiiy til, struktura va semantik xususiyatlar tahlili”** deb nomlangan bo‘lib, bu faslda adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ilmlari tarixida birinchi marotaba “Majolis un-nafois” tazkirasini ruscha tarjimasi bilan qiyosiy tadqiq etildi.

“Majolis un-nafois”ning rus tilidagi tarjimasi bo‘yicha bugungacha hech qanday tadqiqot amalga oshirilmagan. Tazkira janridagi mazkur asarning rus yoki boshqa tillarga tarjima qilinishi nihoyatda murakkab bo‘lib katta ilmiy salohiyat hamda mukammal tajriba talab qiladi. Suyima G‘aniyeva ushbu mas‘uliyatli va murakkab ishni o‘z zimmasiga olib uni muvaffaqiyat bilan tugatishga musharraf bo‘lgan.

“Majolis un-nafois”ning forscha tarjimalari xususida to‘xtalganimizda tarjimonning ishini murakkablashtirishi mumkin bo‘lgan omillar xususida to‘xtaldik, ammo rus tilidagi tarjimaning yanada murakkabroq ekanligini ham inobatga olishimiz kerak. Brinchidan, “Majolis un-nafois” tazkirasini turkiy-chig‘atoy (mumtoz o‘zbek) tilida yozilgan va shoirlar ijodidan keltirilgan namunalarning aksariyati fors tilida. Bu tarjimondan uchta tilni mukammal bilishini talab qiladi. Ikkinchidan, tazkira janridagi asarlar badiiy mazmundagi matnlardan iborat bo‘lib, ularning tarjimasi oddiy matn tarjimasidan keskin farq qiladi. Tarjimon badiiyatdan xabardor bo‘lishi kerak, she‘riyatni, poeziyani yaxshi bilishi, hatto ma‘lum darajada badiiy asar ijod qilish hamda shoirlik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Jahon adabiyoti namoyandalarini she‘riy asarlarining tarjimasi ko‘proq shoirlar tomonidan amalga oshirilganligi ma‘lum. “Majolis un-nafois”ni fors tiliga tarjima qilgan Faxriy Hiraviy, Hakimshoh Qazviniy va boshqalar ham o‘zlari she‘riyatdan xabardor bo‘lganlar. Bu tarjimonlar Navoiyning zamondoshi bo‘lganligi uchun “Majolis un-nafois”da keltirilgan bir qator ma‘lumotlardan oldindan ham xabardor bo‘lganlar. Suyima G‘aniyeva esa mazkur asarni ta‘lif etilgan vaqtidan 500 yildan ko‘proq vaqt o‘tgandan keyin rus tiliga tarjima qilgan. Bu uzoq muddatda til, mentalitet, ijtimoiy vaziyat va boshqa tomonlarni katta o‘zgarishlar yuzaga keldi. Yuzlab atamalar iste‘mol doirasidan chiqib, sanoqsiz neologizmlar til tarkibiga kirib keldi. Bularning barchasi “Majolis un-nafois”ni rus, ingliz va yo boshqa g‘arbiy tillarga tarjima qilish jarayonini qiyinlashtirishi tabiiy. Suyima G‘aniyeva ushbu mashaqqatli ishni muvaffaqiyat bilan bajargan. Uning navoiyshunoslikdagi tadqiqotlari bir qancha mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etilgan, ammo “Majolis un-nafois”ning ruscha tarjimasi tadqiqotchilarning e‘tiboridan chetda qolgan. “Majolis un-nafois”ning ruscha tarjimasini asliyat bilan har tomonlarni qiyosiy tadqiq etish, uning afzalliklari va mavjud kamchiliklariga ilmiy baho berish, shuningdek ruscha tarjimani forscha tarjimalar bilan ham solishtirish zarur deb bilamiz. Ilk navbatda mazkur tarjimaning tahsinga sazovor jihatlari xususida to‘xtalib o‘tsak. Fors tilidagi tarjimalarda tarjimonlar Navoiy tomonidan yozilgan so‘zboshi tarjima qilmay uning o‘rniga o‘zlari so‘zboshi kiritganlar. Rus tiliga esa so‘zboshi to‘liq tarjima qilingan. Ta‘kidlash joizki “Majolis un-nafois” tazkirasida mumtoz adabiyotga xos bo‘lgan turli atamalar haqida ma‘lumot berilgan. Rus tilida muqobil varianti mavjud bo‘lmagan atamalarni tarjima qilish paytida ularga alohida izoh berishga to‘g‘ri keladi. Masalan “muammo” janridagi ijod namunalari. Muammo so‘zini rus tiliga

“проблема” deb tarjima qilishimiz mumkin, ammo bu soʻz topishmoqqa oʻxshash boʻlgan sheʼriy janrni ifodalovchi atama maʼnosini ifodalab kelgan boʻlsa uning tarjimasi biroz murakkab boʻladi. Suyima Gʻaniyeva birinchi majlisdan Hofiz Saʼd haqidagi maʼlumotlarni tarjima qilib uning ijodiyotidan namuna sifatida keltirilgan bir “muammo”ni chiroyli tarzda sharhlab oʻtgan. Muammo janri asosan Navoiy yashab ijod qilgan davrda juda mashhur boʻlgan. Undan oldingi davr adabiyotida bu janr deyarli boʻlmagan. Keyinchalik XIX-XX asrlarga kelib “muammo” janri asta-sekin shoirlarning eʼtiboridan chetda qolgan. Hozirgi davrda esa koʻpchilik bunaqa janrning borligini bilmaydi. Shu sababli Suyima Gʻaniyeva “Majolis un-nafois”ni tarjima qilib turib ushbu adabiy janr haqida mufassal maʼlumot berib oʻtishni maʼqul deb topgan. Olima sharhining oxirida oʻquvchiga ushbu “muammo” janri haqida maʼlumot berish maqsadida tarjima qilindi. Bundan keying “muammo”lar tarjima qilinmaydi”²³ deb yozgan. “Majolis un-nafois”da keltirilgan “muammo”lar juda koʻp. Lekin asar tarjimoni faqatgina bitta muammoning tarjimasi bilan kifoyalagan va qolganlarini tarjimasiz forscha variantini keltirgan. “Muammo” shunaqa janrki uni shunchaki tarjima qilish bilan mohiyatini ochib berish qiyin. U qiziqarli matematik mashqlarga oʻxshaydi. “Majolis un-nafois”dagi “muammo”larning barchasini sharhlab berish esa katta mehnat va ilmiy salohiyat talab qiladi. Ular asosan fors tilida aytilgan boʻlib oʻzbek va rus tillariga tarjima qilinishi va izohlab berilishi foydadan xoli boʻlmaydi.

Rus tilidagi tarjimani asliyat va forscha tarjimalar bilan solishtirib tahlil qilib chiqqanimizda bir qator kamchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Tarjima qilingan asarlarning tahlili uchun ularning “bevosita” yoki “bilvosita” tarjima qilinganligiga ham eʼtibor berishimiz kerak. Oʻzbek shoirlari va yozuvchilarining asarlari dunyoning koʻplab tillariga tarjima qilingan boʻlib, ularning katta qismi “bilvosita” tarjima hisoblanadilar. Bu kabi asarlar oldin rus tiliga keyin gʻarb mamlakatlarining boshqa tillariga tarjima qilingan. Masalan, “Oʻtkan kunlar” romani nemis tiliga oʻtgan asrning birinchi yarmida tarjima qilingan boʻlib, u asarni original tildan emas balki rus tilidagi tarjimasidan oʻgirilgan. “Bilvosita” tarjimada xato va kamchiliklar koʻproq boʻlishi tabiiy. “Majolis un-nafois”ning ruscha tarjimasini esa “bevosita” tarjima deyishimiz mumkin, chunki u original tildan tarjima qilingan, lekin shuni ham inobatga olish kerakki, Suyima Gʻaniyeva “Majolis un-nafois”ni rus tiliga tarjima qilishdan oldin uni transliteratsiya qilgan, yaʼni arab yozuvidan kirill yozuviga oʻgʻirgan. Va ushbu transliteratsiya jarayonida bir qator kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgan. Bu xatolarning aksariyatiga arab alifbosiga asoslangan fors va eski oʻzbek yozuviga taalluqli boʻlgan baʼzi bir xususiyatlar sabab boʻlgan. Masalan, qisqa unilarning yozilmasligi, bir xil shaklga ega boʻlgan va faqatgina nuqtasi bilan farq qiladigan harflar va hokazo. Bu masala oʻz navbatida matnshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi va turli ilmiy bahslarga hamda olimlarning qarama-qarshi qarashlariga sabab boʻlib kelmoqda.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Latoyifnoma” ning poetik xususiyatlari**” deb nomlangan boʻlib uch fasldan tashkil topgan. Birinchi faslda **Faxriy Hiraviy “Latoyifnoma”sining yozilish tarixi, qoʻlyozma va nashr nusxalari, oʻrganilishi** xususida soʻz yuritiladi.

²³ Алишер Навои. Собрание избранных. Перевод Суйимы Ганиевой - Соч. в 10-ти т. Ташкент, 1970, т. IX, – С. 13

O‘rta asrlarda yashagan yirik olimlar, shayxlar, sufiylarning tarjimai holiga oid turli nomdagi manoqiblarda tarixiy ahamiyatga molik bo‘lgan davr ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir qimmatli ma‘lumotlar uchrasa, shoirlar va “ahli tab” deb atalmish fazilatli shaxslar haqidagi tazkiralarda o‘sha davr madaniy hayotiga tegishli ma‘lumotlar aks etadi. Shuning uchun ham bunday asarlar birinchi manba sifatida katta ilmiy qimmatga ega. Ma‘lumki, uzoq o‘tmishda yashab qalam tebratgan ko‘pchilik shoirlarning asarlari bizgacha yetib kelmagan, ammo bunday asarlar va ularning mualliflari haqidagi qimmatli ma‘lumotlar turli davrlarda yozilgan tazkiralarda o‘z ifodasini topgan.

Ko‘hna sharq zaminida yuzaga kelgan qator tazkiralarda jug‘rofiy va tarixiy asarlarni qamrab olib, ulardagi ma‘lumotlarni istifoda etish an‘anasi mavjud bo‘lgan. Shu bois adabiy tazkiralalar chuqur ilmiy ahamiyat ham kasb etgan. Ammo tazkiranavislik xuddi she‘riyat kabi har bir asrda muntazam davom etmagan. O‘nlab asrlar davomida bir nechagina mashhur tazkiralalar dunyo yuzini ko‘rgan, bu haqda biz tadqiqotimizning avvalgi sahifalarida ma‘lumot berib o‘tdik.

Markaziy Osiyo va Eronzaminidan X-XV asrlar davomida o‘tgan yirik shoirlar haqida ma‘lumot beruvchi mashhur tazkiralarda har qanday ilmiy asarda bo‘lganidek, ijobiy jihatlari bilan birgalikda nuqsonlar ham mavjud bo‘lgan. Bu haqda tarixchi olim B. Ahmedov shunday yozadi: “Ilk tazkiranavis Abu Tohir Xotuniyning “Kitobi manoqibush-shuaro” asari bizgacha yetib kelmagan. Fariduddin Attor va Nuriddin Muhammad Avfiylarning tazkiralari (“Ilohiynoma” va “Lubob al-albob”) ko‘p shoirlarning ijodi kirmay qolgan. Davlatshoh tazkirasi esa, ularga qaraganda ancha to‘la va bu asarning yana bir afzal tomonidir. Uning nuqsonlariga kelsak, ba‘zan yillar, u yoki bu shoirning tug‘ilgan joyi noto‘g‘ri ko‘rsatilgan. Masalan, Faxruddin Asad Gurgoniyning (XI asr) qalamiga mansub bo‘lgan “Vis va Romin” dostonini dastlab Nizomi Aruziy Samarqandiy va ulug‘ ozarbayjon shoiri shayx Nizomiy Ganjaviy (taxminan 1141-1209) yozgan, deb xato aytilgan.”²⁴ Shu nuqtai nazardan e‘tibor qiladigan bo‘lsak, XV asr 2-yarmida Xuroson poytaxti Hirotda turkiy tilda yaratilgan adabiy tazkiralarning ilmiy jihatdan mukammalrog‘i Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari edi. Ushbu asar o‘z davridayoq forsiyazabon olim-u shoirlar e‘tiborini tortdi va uni fors tiliga tarjima qilish ehtiyoji tug‘ildi. Bu mas‘uliyatli mehnatni biz diqqatingizga havola etayotganimiz – turkiy tildan forsiyga ijodiy tarjima bo‘lmish “Latoyifnoma” asari muallifi o‘z zimmasiga oldi.

“Latoyifnoma” tazkirasining mavjud nusxalari xususida gapiradigan bo‘lsak, bu asarning ikkita qadimiy va yana bir nechta yangi nusxasi mavjud ekanligiga alohida e‘tibor berishimiz lozim. Qadimgi nusxalarning birinchisi Faxriyning hayotlik paytida, asarning tarjima qilinganidan 37 yil o‘tgandan keyin, ya‘ni hijriy 965-yilning Ramazon oyida kitobat qilingan. Ayni damda ushbu nusxa Britaniya muzeyida Add 7669 raqami bilan saqlanib kelinmoqda²⁵. Ushbu nusxa eronlik adabiyotshunos olim doktor Sayid Abdulloh tomonidan 1931-1933-yillari davomida Oriental College Magazine jurnalida nashr etilgan. Qadimgi nusxalarning ikkinchisi Tabriz shahrida hoji Muhammad Naxjavoniyning kutubxonasida saqlanib

²⁴ Ахмедов Б. Давлатшоҳ Самарқандий. – Тошкент: “Фан”, 1967. – Б. 11.

²⁵ حسام الدين راشدى. فخرى و سه اثر او. مجله دانشكده ادبيات و علوم انسانی. مشهد ۱۳۵۰ خورشیدی

kelmoqda. Bu nusxa nasta'liq xati bilan hijriy 992-yili Hirot shahrida kitobat qilingan. Ali Asg'ar Hikmat o'z tadqiqot ishida ushbu nusxadan foydalangan. U mazkur nusxani hamda Qazviniy tarjimasini hijriy 1323-yili Tehronda chop etgan.

“Latoyifnoma”ning ikkita qadimiy nusxasida nomutanosibliklar, ixtiloflar mavjud ekanligi ham aytiladi. Shu sababli “Latoyifnoma” asarini mukammal o'rganish va qayta nashr etish masalasi anchadan beri tadqiqotchilar diqqatini tortib kelmoqda. Hozirgi kungacha bu tazkiraning bir nechta yangi nusxalari ham chop etilgan, ammo hanuzgacha bular mukammal qiyosiy-chog'ishtirma tarzda o'rganilmagan. “Latoyifnoma” tazkisasi nusxalarining tanqidiy tadqiqi hamda bu asarning “Majolis un-nafois” tazkisasi bilan qiyosiy tadqiqi adabiyotshunosligimizdagi haligacha poyoniga yetkazilmagan masala bo'lib qolmoqda.

Bobning ikkinchi faslida **“Latoyifnoma”da Mir Alisher Navoiy obrazining badiiy tasviri va muallif sharhi holining poetik ifodasi** tahlil qilingan. Mir Alisher obrazining badiiy tasvirini sharhlash uchun uning ifodasidagi turli badiiy, lafziy va ma'naviy san'atlar nuqtai nazaridan tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. “Latoyifnoma”ning to'qqizinchi majlisi quyidagicha nomlangan: *“Zikri latoyifi Amir Nizomiddin Alisher va suxanvaronero ki holo shavohidi ma'oniro ba libosi dilpaziri nazm muzayyan mesozand va ba dastyorii aqli salim va zehni mustaqim, hamchun sabo va nasim niqob az peshi jamoli pardanishinoni nigorxonai xayol barmeandozand va doxili a'za maxodime, ki Hazrati Mir karda nestand va in no'h qism ast”*²⁶. Tarjimasi: “Mir Nizomiddin Alisher va ayni damda ma'naviyat durdonalariga nazmning go'zal libosi bilan zeb-ziynat berayotgan va sabo va nasim kabi xayol pardasi ortida o'tirganlar yuzidan niqoblarini ochayotgan va Hazrati Mir tomonidan ismlari zikr qilinmagan latofatlari maxodimlarning zikri”. Muallifning suxandonlik mahorati ushbu gapning o'zidan bilinib turibdi. Faxriy Mir Hazratlariga nisbatan o'zining yuksak ehtiromini, ul zotning mislsiz ilm sohibi ekanligini, xoksorligini, ilm ahliga g'amxo'r ekanligi, yosh avlod tarbiyasiga qo'shgan hissasi va boshqa benazir xislatlarini yuksak mahorat bilan ifoda etgan. “Majolis un-nafois”ga ilova qilingan to'qqizinchi majlisning birinchi qismi Hazrat Navoiyga bag'ishlangan. Bundan tashqari asarning bir qancha joylarida Mir zikri keltirilgan.

Faxriy Hiraviyni dunyo navoiyshunosligiga asos solgan adib va olim sifatida tan olish mumkin. Chunki “Latoyifnoma”ning mazkur majlisidagi Navoiyga bag'ishlangan qismi bu buyuk insonning tarjimai holi va ijodiyoti to'g'risida yozilgan eng avvalgi tadqiqot asarlaridan biri hisoblanadi.

Faxriy Navoiy hazratlarining zikrini bayon etishdan oldin uning tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada buyuk inson ekanligi va o'zining ushbu bayon etayotgan tavsiflarini Mir Alisher sifatlarining mingdan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan. “Latoyifnoma”ning ushbu qismida Mirga oid quyidagi asosiy ma'lumotlar keltirilgan:

- Mirning otasi Mir Kichkina Sulton Abu Sa'id Mirzoning mulozimi ekanligi, muhr va mansabga ega bo'lmasa ham katta hurmat va ehtiromga sazovor kishi bo'lganligi;

²⁶لطایفنامہ فخری ہروی، مرتب محمد عبداللہ، نشریات دانشگاه پنجاب، پاکستان، ۱۹۳۱ میلادی

- ona tomonidan Mirzo Boyqaro ibn Mirzo Shayx Umar xonadonining amir ul-umarosi bo‘lmish Shayx Abusa’id Changga bog‘liq ekanligi;
- Mirning ikki yoshli bo‘lgan paytidan Mirzo Abulqosim Boburning mulozimi bo‘lganligi;
- Amiri Sohibqiron (Boyqaro) bilan o‘sha zamonlardan hamsabaq va ko‘kaldosh (emikdosh) bo‘lganligi;
- Samarqand shahrida tahsil olganligi va bu shaharda boshidan kechirgan ba’zi qiyinchiliklar;
- Husayn Boyqaro saltanatidagi mavqei va ilm ahliga bo‘lgan cheksiz hurmat ehtiromi hamda yosh tolibi ilmlarga ko‘rsatgan ko‘maklari;
- Mir hazratlarining vafoti va unga bag‘ishlab yozilgan bir qancha marsiyalar.

Bulardan tashqari Mir Alisherning meros qoldirgan garonbaho merosi xususida ham to‘xtalib o‘tgan va uning yaratgan barcha asarlarini bayon etgan. Shu joyda ta’kidlash joizki, asosiy manba sifatida foydalanilayotgan “Latoyifnoma” nusxasida o‘qilishi imkonsiz bo‘lgan holatdagi joylari ham bor. Kitobning aynan shu kamchiligi tufayli Mirning asarlariga oid ma’lumotlarni to‘liq o‘qish imkoni bo‘lmadi. Asarning yana bir qancha joylarida shu kabi nuqsonlar borligi uchun “Latoyifnoma”ning boshqa nusxalaridan foydalanib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi bobning so‘nggi fasli **“Latoyifnoma”da muallif sharhlarining yangiligi, o‘ziga xosligi va tarixiy ahamiyati (tabdil asosida)**” deb nomlangan. Tadqiqot doirasida “Latoyifnoma” tazkirasini fors alifbosidan kirill va lotin yozuvlariga tabdil qilish va uni o‘zbek tiliga tarjima qilishni maqsad qilganmiz. Mazkur faslda ijodiy tarjimadagi sharh yozishning o‘ziga xosligi va muallif sharhlarining tarixiy hamda madaniy ahamiyati ilmiy tadqiq etilgan. Mavjud nusxadan foydalanib, tazkiraning to‘qqizinchi majlisi, ya’ni “Majolis un-nafois”da mavjud bo‘lmagan qismini kirill va lotin yozuvlaridagi tabdilini amalga oshirdik. Ushbu majlis “Latoyifnoma”ning eng katta majlisi hisoblanadi va to‘qqizta qismdan iborat. Tazkiraning bu majlisini “tazkira ichidagi tazkira” deb baholasak ham xato bo‘lmaydi. Uning tarixiy va ilmiy, shuningdek g‘oyaviy va badiiy ahamiyati adabiyotshunoslik, xususan tazkirashunoslik uchun muhimligi nuqtai nazaridan tadqiqotimiz tarkibida har bir qismining qisqacha tafsilotini, tadqiqot ilovasida esa tabdilni aynan keltirishni ma’qul deb bildik.

“Latoyifnoma”da muallif sharhlarining yangiligi va o‘ziga xosligi asosan to‘qqizinchi bobda namoyon bo‘ladi. Tazkira shaklidagi asarlarlarning tadqiq etilishi jarayonida sharh yozish masalasiga ko‘proq e’tibor beriladi. Sharh yozish muallifning mahoratiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Tazkiraning jozibadorligi ham aynan shu narsaga bog‘liqdir. Tazkiranavis adiblarning aksariyatiga agar hozirgi davr tilshunosligi nuqtai nazaridan baho beradigan bo‘lsak ularni “yuksak mahoratli diplomat” deb ta’riflashimiz mumkin. Mashhur asarlar qatoridan joy olgan tazkiralarning aksariyatida diplomatik uslubdan foydalanilgan. Biz ikkita tazkirani qiyosiy tahlil etib turib masalaning ushbu tomoniga ham e’tibor qaratishimiz maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa “Latoyifnoma”ning to‘qqizinchi bobini sharh yozish jihatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu bob tarjima qilingan qolgan boblardan farqi shundaki uni Faxriy tarjima qilmagan, balki ijod

qilgan. Shuning uchun Faxriyning asl sharh yozish mahorati eng avvalo shu bobda namoyon bo‘ladi.

“Latoyifnoma”ning tabdili dissertatsiyaga ilova qilinadi.

XULOSA

Dissertatsiya bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tazkira uslubida ijod qilish, asosan, Movarounnahr va Xurosonda vujudga kelgan. Tazkiranavislik maktabi ham uzoq yillar davomida ushbu mintaqada shakllangan va undan keyin tazkiranavislik san‘ati boshqa mintaqalarga tarqalgan. Tazkiranavislik maktabi rivojlanganidan keyin adiblar orasida ushbu janrda ijod qilish an‘anaga aylandi va tazkiraning o‘z mavzu, mundarija, badiiy til va uslub jihatiri shakllandi. Mir Alisher Navoiy tomonidan “Majolis un-nafois” tazkirasining yartilganligi, mazkur tazkiraning tarjimalari va boshqa mutafakkirlar tomonidan yaratilgan tazkiralari XV asrda bu hududda tazkiranavislik maktabining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

2. Hazrat Navoiy tomonidan asos solingan turkiy tazkiranavislik maktabi XX asr boshlariga qadar nafaqat Turkiston yoki Markaziy Osiyoda, balki Eron, Hindiston, Afg‘oniston, Ozarbayjon hamda Turkiyada muvaffaqiyat bilan davom etgan. O‘tgan 500 yildan ortiqroq vaqt davomida yaratilgan tazkiralarning aksariyatida “Majolis un-nafois”ning ta’siri bor.

3. Tadqiqotimizda nomlari keltirilgan tazkirashunos olimlarning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, “Majolis un-nafois” tarjimalarining eng qadimiyroqlaridan biri Faxriy Hiraviy (ba’zi manbalarda Hirotiy) nomi bilan mashhur bo‘lgan Sulton Muhammad Amiriyning tarjimasidir. Faxriy Hiraviy ushbu asarini “Latoyifnoma” deb nomlagan. Hakimshoh Muhammad Qazviniy, Shoh Ali hamda Faxriy Hirotiy “Majolis un-nafois”ning birinchi tarjimonlari sifatida tanilganlar.

4. “Latoyifnoma” asarining “Majolis un-nafois” boshqa tarjimalaridan farqli tomoni shundaki, muallif unga yana bitta majlis, ya’ni to‘qqizinchi majlisni ilova qilgan. Bu majlisda Hazrat Navoiyning vasflari keltirilib, “Majolis un-nafois”da Navoiy tomonidan ismlari aytilmagan yana 189 ta shoir haqida ma’lumot berilgan. “Latoyifnoma” birinchi tarjima ekanligi bir qancha tadqiqotlarda isbotlab berilgan.

5. “Latoyifnoma”ning diqqatga sazovor jihatlaridan yana biri shundan iboratki, u “Majolis un-nafois”ning keyingi davrlarda amalga oshirilgan tarjimalari uchun namuna sifatida xizmat qilgan. “Arafot ul-oshiqin”, “Riyoz ash-shuaro”, “Haft iqlim”, “Xulosat ul-ash’or” va “Xazinayi ganji ilohiy” kabi asarlarning mualliflari o‘z asarlarini “Majolis un-nafois” va “Latoyifnoma” tazkiralari ta’siri ostida ijod qilganlar.

6. “Majolis un-nafois” ilk marta Suyima G‘aniyeva tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek (chig‘atoy) tilidan rus tiliga tarjima qilingan bo‘lib, bu ishni amalga oshirgan. “Majolis un-nafois”ning ruscha tarjimasini Alisher Navoiy merosini xorijiy kitobxonlarga tanishtirishda muhim hissa qo‘shgan. Biroq, uni qayta tahrir qilish va ayrim kamchiliklarni bartaraf etish lozim. Asarning ko‘p qismlari, jumladan, she’rlarda ishlatilgan badiiy san’atlar va Navoiy uslubi ruscha tarjimada imkon

qadar saqlangan, ammo tazkiradagi ayrim badiiy san'atlar ruscha tarjimada aks ettirilmagan yoki noto'g'ri ifodalangan. Ayrim ismlar va joy nomlarining ruscha variantlarida noaniqlik mavjud.

7. "Latoyifnoma" ning yozilish tarixiga oid turli fikrlar mavjud. Muhammad Husayn Roshidiy Faxriy va uning asarlariga bag'ishlangan maqolasida mazkur asarning yozilish sanasini hijriy 927-928-yillar deb taxmin qilgan. "Oftobi olamtob" tazkirasi muallifi Qozi Muhammad Sodiqxon Axtar "Latoyifnoma" ning yozilish sanasini 927-yil deb ko'rsatadi. Ali Asg'ar Hikmat esa uni 928-yil deb bayon etgan.

8. "Latoyifnoma" boshqa tarjimalardan, xususan Qazviniy tarjimasidan ko'ra ancha qimmatliroq. "Latoyifnoma"ning afzalliklaridan biri shundaki, unda ismlari zikr qilingan shoirlar soni Qazviniy tarjimasidagi shoirlar sonidan ko'proq. Bundan tashqari, Faxriy o'z tarjimasida "Majolis un-nafois" tazkirasidagi ma'lumotlarning ko'p qismini tahrir qilgan. "Latoyifnoma" ning yana bir xususiyati shundaki, u badiiy til hamda nutq jihatidan ravon va tushunilishi osonroq, shu nuqtayi nazardan ham boshqa tarjimalardan ustunroq.

9. "Latoyifnoma"ning mavjud nusxalari turli davrlarda turli mamlakatlarda chop etilgan. Asar 1908-yili Toshkent shahrida chop etilgan va bir necha yildan so'ng Oriental College Magazine jurnalida nashr etilgan edi. Panjob universiteti professori Muhammad Abdulloh tomonidan nashr etilgan nusxa Britaniya muzeyida saqlanib kelinayotgan nusxaning Oriental College Magazine jurnalida 1931-1933-yillar davomida chop etilgan variantidan olingan. "Latoyifnoma" Eronda ham nashr etilgan va bir necha marotaba qaytadan chop qilingan. Eronlik tadqiqotchi olim Ali Asg'ar Hikmat tomonidan nashr etilgan nusxa "Majolis un-nafois"ning ikkita tarjimasini o'z ichiga oladi. Ali Asg'ar Hikmat Faxriy va Qazviniy tarjimalarini bitta jildda nashrdan chiqargan. Hikmatning bu tadqiqot ishi 1942-yilda amalga oshirilgan. Yangi nusxalarning yana biri va eng yangisi yosh tadqiqotchi Hodi Bedakiy tomonidan 2019-yil Tehrondagi "Afshor" nashriyotida chop etildi.

10. Mazkur ikki tazkirada mualliflarning zullisonaynlik qobiliyatiga ega bo'lganliklaridan tashqari boshqa zullisonayn shoirlar ham targ'ib va tashviq etilgan. "Majolis un-nafois"ning o'zida yigirmaga yaqin zullisonayn shoirlar ismlari zikr qilingan. "Latoyifnoma"da esa ushbu zullisonayn shoirlardan tashqari yana bir qancha ikki tilli shoirlarning ismlari zikr qilingan va ijodiyotidan namunalar keltirilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

КУРБОНОВ БОБУР ЧОРШАНБИЕВИЧ

**СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ
“МАДЖОЛИС УН-НАФОИС” И “ЛАТОИФНАМЕ”: ТРАДИЦИЯ И
ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ, ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО
СТИЛЯ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Fil1632.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель: Салохий Дилором Исмомиддин кизи
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты: Умурова Гузаль Хотамовна
доктор филологических наук (DSc), профессор
Иззатиллаев Парвиз Иноятиллаевич
кандидат филологических наук (PhD), доцент

Ведущая организация: Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 27 февраля 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарина, д. 43. Тел:(99866) 233-78-43; факс (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована под № 62591). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, д. 93. Тел: 99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан « 12 » февраля 2026 г.
(реестр протокола рассылки № 2 от « 12 » февраля 2026 г.)



Н.З. Насруллаева
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном мировом литературоведении наблюдается устойчивый рост интереса к проблемам классической литературы, включая систему художественных образов, преемственность традиций, психологию творчества, вопросы художественного стиля, литературную среду, традицию двуязычия (зуллисонайн), эволюцию жанров, композицию переводов и достижения сравнительного литературоведения. В условиях глобализации перед исследователями ставится задача осмысления литературного наследия восточной классической словесности и его переводов с позиций актуальных научно-теоретических парадигм. В этой связи особую значимость приобретают исследования, направленные на раскрытие поступательного развития литературных связей, сравнительное изучение оригиналов и переводов, анализ художественного стиля и его трансформации в переводе, а также научную оценку переводческих и транслитерационных процессов.

Современная мировая литературная критика ориентирована на углублённое изучение и интерпретацию выдающихся классических произведений с опорой на достижения новейших научных подходов. Это создаёт широкие возможности для анализа системы образов, раскрывающих поэтическую идею произведения, композиционной сложности текста, своеобразия авторского стиля поэтов, писавших на двух языках, а также для выявления нового поэтического содержания посредством сопоставительного изучения оригиналов и переводов. В данном контексте сравнительное исследование классических произведений, направленное на определение их языковых, стилевых, жанровых и семантических особенностей, специфики интерпретации двуязычия и традиции комментария в переводах, а также на изучение тазкироведческих школ и историко-социальной среды, приобретает статус одной из приоритетных задач современного литературоведения.

